

O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA TA’LIM HUQUQI VA UNING PEDAGOGIK YONDASHUVLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Sapayeva Dinaraxon Ruslanovna,
RANCH universiteti 1-kurs magistranti
sapayevadinara16@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18444999>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ta’lim huquqining mazmuni va uning zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, inklyuziv ta’lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar konstitutsiyaviy normalar bilan qanchalik uyg‘unlashgani yoritiladi. Mavzu ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi konstitutsiyaning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, pedagogik yondashuv, kompetensiya, inklyuziv ta’lim, innavatsiya, konstitutsiyaviy normalar, ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar.

Аннотация. В данной статье анализируется содержание права на образование, закреплённого в Конституции Республики Узбекистан, а также его взаимосвязь с современными педагогическими подходами. Рассматриваются компетентности подход, личностно-ориентированное обучение, инклюзивное образование и инновационные педагогические технологии, а также степень их соответствия конституционным нормам. Тема направлена на раскрытие роли и значения Конституции в повышении качества и эффективности образования.

Ключевые слова: Конституция, педагогический подход, компетентность, инклюзивное образование, инновации, конституционные нормы, законы об образовании.

Abstract. This article analyzes the essence of the right to education as defined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan and its connection with modern pedagogical approaches. It examines the competency-based approach, learner-centered education, inclusive education, and innovative pedagogical technologies, highlighting how they align with constitutional principles. The topic aims to demonstrate the role of the Constitution in enhancing the quality and effectiveness of education.

Keywords: Constitution, pedagogical approach, competence, inclusive education, innovation, constitutional norms, laws on education.

Kirish. Bugungi globallashuv va jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, Konstitutsiyaning yangi tahriri ta’lim huquqini ta’minlash va uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Ta’lim huquqining konstitutsiyaviy asoslari bilan kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, inklyuziv va innovatsion ta’lim yondashuvlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola aynan ushbu masalalarni yoritishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan

ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Buning misolini qabul qilinayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari «Yoshlarga oid Davlat dasturi», yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi [2]. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lim tizimini isloh qilish, sifatli ta'lim tuzilmasini yaratish, uzluksiz ta'limni yangi samarali jarayonga aylantirish masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Yangi Konstitutsiyamizda qator inson huquqlari qayd etilgan. Ularning eng muhimlaridan biri ta'lim olish huquqidir.

Xususan, Konstitutsiyaning 50-51-moddalari ta'limga bag'ishlangan. Bu huquqiy normalarda mazmuni fuqarolarning ta'lim olish, bepul umumiy ta'lim olish va maktab ishlarini davlat tomonidan himoya qilinishini huquqini nazarda tutadi. Shuningdek, bu moddalarda Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va oliy ta'lim qamrab olingan. 52-moddada esa o'qituvchining davlat va jamiyat oldidagi darajasi belgilab berilgan va o'qituvchilarning har qanday noqonuniy aralashuvdan himoyalanihi kafolatlangan huquqlarini qamrab olgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tahlil va sintez, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosiy manba sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar mazmuni ilmiy adabiyotlar asosida o'rganilib, ularning konstitutsiyaviy normalar bilan uyg'unligi aniqlandi.

Tahlillar va natijalar. Hozirgi jadal texnik va texnologik taraqqiyot, fanlar, nazariyalar, dunyoqarashlarning jadal rivojlanishi sharoitida ta'limni tashkil etish va amalga oshirish jarayonlari uzluksizlikni, tizimli yondashuvni taqozo etadi.

Shu boisdan, bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida qator islohatlar, o'zgartirishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ulardan ko'pi oradan ko'p vaqt o'tishiga qaramasdan o'z natijasini ko'rsatgani quvonarli holat. Bunga misol sifatida jamiyatda muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlarini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi

masalalarning yechimlari, bundan tashqari metodologik, pedagogik yondashuvlarning yangicha tarkibini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Davlat ta’limni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda siyosat olib boradi:

- Ta’limning uzluksizligi;
- Davlat ta’lim standartlari;
- “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi;
- Ta’limni modernizatsiya qilish islohotlari [3].

Har qanday fan, shu jumladan, pedagogika, agar u tobora ko‘proq yangi faktlar bilan to‘ldirilsa, rivojlanib, takommilashib boradi. O‘z navbatida, ularni to‘plash, izohlash, tushuntirish, ilmiy asoslangan tadqiqotlar zarur bo‘lgan nazariy printsiplar to‘plamiga bog‘liqdir va ularning yig‘indisiga metodologiya deyiladi [4]. Metodologiya komponentlarni tavsiflaydi ilmiy tadqiqotlar uning ob‘ekti, tahlil predmeti, tadqiqot vazifalari, ularni hal qilish uchun zarur bo‘lgan tadqiqot vositalarining yig‘indisi, shuningdek, tadqiqot vazifalarini hal qilish jarayonida tadqiqotchining harakatlari ketma-ketligi to‘g‘risida tasavvur hosil qiladi. Metodologiya uslubiy printsiplarda mujassamlangandir. Bugungi kunda pedagogika sohasida qo‘llanilayotgan metodologik yondashuvlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv - bu yondashuv o‘quvchining individual ehtiyojlarini aniqlash, unga mos rivojlanish trayektoriyasini yaratish, ijodkorlik va mustaqillikni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi.;

- Individual-subyektiv yondashuv – bu yondashuv o‘quvchining mustaqil ishlash, amaliy bilimlarni qo‘llash, muammolarni hal qilish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan;

- Inklyuziv ta’lim — nogironligi bo‘lgan yoki maxsus ehtiyojli bolalar uchun teng imkoniyat yaratish, jismoniy va psixologik to‘siqlarni kamaytirish, jamiyatda bag‘rikenglikni kuchaytirishdir;

- Innovatsion texnologiyalar — AKT, interfaol metodlar, STEAM, CLIL, blended learning — ta’lim jarayonini zamonaviylashtiradi va samaradorligini oshiradi;

- Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash — innovatsion texnologiyalar Konstitutsiya ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa zamonaviy ta’lim texnologiyalarining keng joriy etilishiga sabab bo‘ladi;

- Kompetensiyaviy yondashuv — zamonaviy ta’lim standartlari kompetensiyaga asoslangan ta’lim konstitutsiyadagi “sifatli ta’lim” tamoyilining amaliy ko‘rinishidir[5].

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida maktab oldida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vazifasi turibdi. Shu bilan birga, ta’lim o‘quvchilarning ma’naviy, intellektual, ijodiy rivojlanishini ta’minlashi kerak. Zamonaviy maktab nafaqat turli qobiliyatlarga ega bo‘lgan bolalarni o‘qitishni, balki sinfda bolaning shaxsiyatining

qadr-qimmatini tasdiqlovchi o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim modeliga qaratilgan ijodiy muhitni yaratishga qaratilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mazmuni va asosi har bir shaxsning individualligini tan olish, uning "kollektiv subyekt" sifatida emas, balki, eng avvalo, o'ziga xos subyektiv tajribasiga ega bo'lgan shaxs sifatida rivojlanishidir. O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim - bu quyidagilarga qaratilgan:

- bolaning shaxsi;
- o'quv jarayonining subyektivligi;
- bolaning o'zini o'zi qadrlashi [6].

Bu yondashuv turiga quyidagilarga tayangan holda yana shunday ta'rif bersak bo'ladi: Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - bu o'zaro bog'liq tushunchalar, g'oyalar va harakat usullari tizimiga tayanish orqali o'zini o'zi bilish, bolaning shaxsini o'z o'zini anglash jarayonlarini ta'minlash va qo'llab-quvvatlashga imkon beradigan pedagogik faoliyatdagi uslubiy yo'nalish. uning o'ziga xos individualligini rivojlantirish. Ushbu yondashuv har bir o'qituvchidan o'quvchining muayyan huquqlarga ega ekanligini tan olishni, uning bolalarni "kuchli" va zaif" ga bo'lishdan bosh tortishi, barcha bolalar har xil ekanligini unutmasligini talab etadi.

Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (2020-yil 23-sentyabr) 5-moddasi qoidalariga asosan ta'lim olishda barcha teng huquqlidir. Bu qonun inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritilganligi bilan ham avvalgi tahriridan farqlanib turadi va bu qonunga muvofiq inklyuziv ta'lim sohasidagi vakolatli organ etib Vazirlar Mahkamasi belgilangan. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda ta'limning inklyuziv shaklini ham birdek rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayni damda barcha mamlakatlarda ham inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. O'zining pedagogik faoliyati davomida ushbu metodologik yondashuvdan foydalagan har bir o'qituvchi uning nafaqat o'quvchilari uchun, balki o'zi uchun ham bir qancha qulayliklar va imkoniyatlar yuzaga kelayotganini his etadi. Jumladan, o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan darsdagi faoliyati:

- Dars davomida barcha o'quvchilarning ishiga ijobiy hissiy kayfiyatni yaratish;
- Muammoli ijodiy topshiriqlardan foydalanish;
- O'quvchilarni vazifalarni bajarishning turli usullarini tanlash va mustaqil ravishda ishlatishga undash kabi qator ijobiy natijalarga erishishda yordam beradi.

Xulosa. O'zbekiston Konstitutsiyasida ta'lim huquqi mustahkam belgilangan bo'lib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar ushbu huquqni amalda samarali ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimining kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, inklyuziv va innovatsion asoslarda rivojlanishi yoshlarning intellektual salohiyatini oshiradi va mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Guvohi bo'lganimzdek, har bir metodologiya, har bir yondashuvning zamirida kelajak avlodni har tomonlama shakllangan, yetuk, komil

shaxs sifatida o‘z o‘ziga ulg‘ayishiga zamin yaratish, ularni hayotda, jamiyatda o‘z o‘rinlarini topa oladigan, malakali mutaxassislar sifatida yetishtirishdek sharaflari va bir vaqtning o‘zida mas‘uliyatli vazifa, maqsadlar yuklatilgan. Bunda albatta, o‘qituvchi, pedagoglarimizdan kasbiy mahorat, rivojlanish, o‘z ustida tinimsiz ishlash va kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lishga qaratilgan harakatlarini to‘xtatmasliklari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024.
2. “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2020 (yangi tahrir).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid qaror va farmonlari “Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi”, “Raqamli ta’limni joriy etish chora-tadbirlari”, va boshqalar.
4. Hasanboeva O., Xoliqova D. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Pedagogika. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
6. Toxtaxo‘jayev B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Xoliqov A. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.
8. Turdiev A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2022.
9. Karimova V., Usmonxo‘jayeva D. Pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.